



## KASBIGA SODIQ USTOZGA EHTIROM

**Muallif:** Guliniso Toxtaoxunova<sup>1</sup>

**Affiyatsiya:** O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada instituti Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi muhandisi<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14542894>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Toshkent shahrida tavallud topib, ko'p yillik mehnat faoliyatini ustozlik, o'qituvchilikka bag'ishlab kelayotgan pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, "Faxriy professor", 50 yillik o'qituvchilik faoliyati davomida 100 dan ortiq yuqori malakali shogirdlar tarbiyalagan, o'z ishining fidoyisi Baxtiyor Azimov haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Musiqa, ta'lif, ijod, tarbiya, pedagogika, madaniyat.

So'zim avvalida shuni aytishni istardim: bilim hamma eshiklarning kaliti, muvaffaqiyatning asosidir. Hozirgi kunda yurtimizda ta'limga juda katta e'tibor qaratilmoqda va bularning barchasi avlodni, tayyorlashga qaratilgan. Zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda va ulkan marralarni zabit etishda ta'limgning o'rni beqiyos. Bunda biz fidoyi va o'z ishining ustasi bo'lgan ustozlarimizga suyanamiz.

Joriy yil 1 oktyabrdan ustoz-murabbiylar kunini ko'tarinki ruhda nishonladik, ustozlarimizga tahsinlar aytdik, ularga minnatdor ekanligimizni bildirdik. Shundan ruhlaniib, ustoz haqida maqola yozishni ahd qildim. San'at – millatning ma'naviy mulki. Inson kamolotida musiqaning o'rni va ahamiyati katta ekanligi mutaxassis-olimlar tomonidan isbotlangan. Ayniqsa, milliy ohanglarga yo'g'rilgan musiqaning kishilarni bir maqsad yo'lida jipslashtirish, ularni bonyodkorlik, ijodkorlik, go'zallik sari ilhomlantirishi sir emas. Bu borada O'zbekiston davlat konservatoriysi jamoasi qator yangiliklarni hayotga joriy etishga bel bog'lagan. Ayniqsa rektorimiz O'zbekiston xalq artisti Kamoliddin Turdimuratovich Urinboev rahbarlik qilgan davrda sezilarli darajada ijobjiy o'zgarishlar, turli davlat ijodiy guruhlari bilan hamkorlik, madaniy aloqalar, turli madaniy tadbirlar o'tkazish jonlandi. Masalan: O'zDK 85 yilligi, O'zbekiston davlat konservatoriysi tarixi saxifalari bo'yicha nashr etilgan to'plamlar, o'quv qo'llanma-darsliklar nashr etish ancha jonlandi. Bu ishda jamoa professor-o'qituvchilari o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bunday ishlarda faol qatnashib kelayotgan tajribali ustozlardan biri haqida so'z yuritmoqchimiz. O'zimizda va undan tashqarida yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazishda raislik va a'zolik, festival va seminarlarda ishtirok, ochiq darslarda ekspertlik sifatida kuzatish va boshqa tadbirlarni aytib o'tish mumkin. Bunda keksa avlod ustozlar o'z tajribalari bilan o'rtoqlashishlari, talabalarda kasblariga bo'lgan muhabbatni uyg'otish, yosh o'qituvchilarga darslarda ijobjiy muhit yarata olish, musiqiy ijrochilikni

ta'lim-tarbiya bilan uyg'unlikda olib borish, musiqa madaniyati va san'atining o'rni haqidagi maslahatlarini ijobiy baholash mumkin.

Tanishing pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, "Faxriy professor", "Madaniyat va san'at fidokori" **Baxtiyor Azimov**.

Inson kamolotida ustozning, bergan o'gitlarining o'rni alohida. B.Azimov dastlabki ta'limi Glier nomidagi musiqa maktabi (hozirgi ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi)da oldi (1957-1963). O'Imas Akbarov, Farrux Mirusmonov kabi tajribali ustozlar unga musiqa ilmidan saboq berdilar, hayotga tayyorladilar. Ushbu maktabni bitirganlar orasida taniqli san'atkorlar, ustoz-o'qituvchilar ko'pchilikni tashkil etadi, ular sizga ma'lum.

Keyinchalik o'qishni Toshkent davlat konservatoriysi (hozirgi O'zbekiston davlat konservatoriysi)da professor, davlat mukofoti sovrindori A.I.Petrosyans va dotsent V.Ya.Borisenkolar rahbarligida davom ettirdi (1963-1971). O'qish orasida 3 yil harbiy xizmatni ham o'tadi (1964-1967). O'qishni tugatib (1971) T.Jalilov nomidagi "Xalq cholg'ulari orkestri" da sozandalik bilan bir qatorda o'qituvchilikni ham uyg'unlikda olib bordi. Avval Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi universitet) da o'qituvchilikdan boshlab (1968), turli lavozimlarda faoliyat yuritdi (kafedra mudiri, fakultet dekani), keyinchalik ilmiy izlanish bilan shug'ullanib – "**Xalq musiqasi vositasida yoshlarni axloqiy tarbiyalash**" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi (1991). Uning izlanishi, yoshlar tarbiyasiga bo'lgan e'tibori, faolligi Respublika Xalq ta'limi vazirligi nazariga tushdi. Uni Yu.Rajabiy nomidagi musiqa pedagogika bilim yurtiga rahbarlik lavozimiga tayinladilar (1992-1994). Bu yerda ham yoshlarni musiqa san'ati bilan tanishtirish, o'zbek milliy cholg'ularini targ'ib qilish, ijrochilik mahoratlarini oshirishga katta e'tibor berdi. Turli jamoalar bilan ijodiy uchrashuvlar, suhbatlar, konsertlar, bilim yurti talabalarining hisobot konsertlarini tashkil etishda faoliyk ko'rsatdi. Natijada bilim yurti o'quvchi-yoshlari turli tanlov-ko'riklarda ishtirok etishga muyassar bo'ldi. Uning mehnatlari zoe ketmadi, "Xalq ta'limi a'lochisi" (1986) nishondori, "Mehnat faxriysi" (1988) bo'ldi. O'zi o'qigan Glier nomidagi ixtisoslashgan musiqa akademik litseyiga ustozi F.Mirusmonov taklifi bilan ishga keldi (1998). Bu yerda ham o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish, o'quvchilarning musiqiy ijrochiliklarini oshirish, ijodkorliklarini shakllantirishga urg'u berdi. Bo'lim o'qituvchilar bilan hamnafas, hamfikr, uyushqoqlik bilan faoliyat yuritishga, sinf konsertlarini o'tkazishga erishdi. Uning o'quvchilari o'qishni konservatoriyada davom ettirib, oliy ma'lumotli sozanda bo'lganlari bor (Umar Shamsiev, Shavkat Berdiev va boshqalar). Bo'limning 50 yilligi va bo'lim rahbari F.Mirusmonovning 70 yilligini ko'tarinki ruhda o'tkazishda faol tashkilotchilardan bo'ldi (2002). Shundan so'ng u Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat institutiga kafedra mudiri lavozimiga taklif etildi. Yangi joyda talabalar bilan yana qizg'in ish olib bordi. Talabalarni ijodkorlikka, ilmiy izlanishga da'vat etdi. Kafedra professor-o'qituvchilarini ham jipslashtirish, o'z tajribalarini o'rtoqlashish borasida Respublika va Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiylar o'tkazishda yetakchilik qildi, ilmiy konferensiylar va festivallarda o'z ma'ruzalari bilan qatnashib keldi. Uning muharrirrigida Ilmiy to'plamlar, darslik, o'quv qo'llanmalar nashr ettirildi. Talabalar orkestri va ansambl turli festival-tanlovlardan ishtirokchisiga aylandi (2002-2012). "**Navro'z sadolari**" ko'p ovozlik ansambl va orkestrlar festivalida muntazam ishtirok etishga erishildi.

50 yillik o'qituvchilik faoliyati davomida 100 dan ortiq yuqori malakali shogirdlarni tarbiyaladi. Uning sinfini bitirgan talabalar hozirgi kunda Respublikamizning turli

viloyatlarida ijodiy jamoalar rahbari, sozanda, o'qituvchi sifatida ko'p ovozli musiqa ijrochiligin targ'ib etib, yoshlarga saboq berib kelmoqdalar. B.Azimov doimo izlanishda, yangilik tarafdori, oliv ta'lif talablariga javob beradigan yangi zamonaviy texnologiyalardan xabardor, uni ta'lif jarayoniga joriy etishda o'rnak bo'larli darajada. Uning rahbarligi davrida bir necha kafedra a'zolari professor, dotsent unvonlariga ega bo'ldilar. Ilmiy rahbarligida magistrlik, bakalavr darajasini olgan talabalari talaygina. O'z mustaqil fikri, sermahsul ishlash qobiliyatiga ega, tabiatan qiziquvchan, ustoz Baxtiyor Azimov zamonamiz ijodiy amaliyotining vazifalari bilan bog'liq muammolar ustida izlanish olib bormoqda. U "Dirijyorlik amaliyoti" darsligi, "Xalq cholg'ulari orkestri partiturasini o'qish kursi", "Maxsus cholg'u" o'quv qo'llanmalari, 70 dan ortiq qator ilmiy-uslubiy maqolalar muallifi. 20 dan ortiq darslik va o'quv qo'llanmalarga mas'ul muharrirlik qilgan, taqrizlar yozgan. Ilm o'rganish niyatida yo'lga chiqqan kimsaning qadamini Alloh yengil qiladi. (Hadisdan).

Talabalar orkestri, ansambli bilan o'quvchi-yoshlar orasida suhbatli konsertlar, bolalar va qariyalar uyida xayriya konsertlari, Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda Bolalar musiqa maktablarida ijodiy uchrashuvlar o'tkazib keladi. "Soz sadosi" radio eshittirishida qiziqarli suhbatlar bilan qatnashib keldi. Turli tanlovlarda Hay'at a'zosi sifatida ham faoliyat ko'rsatadi.

O'z ishining fidoysi, tinimsiz izlanishlar olib borayotgan Baxtiyor Azimov 2012 yildan O'zbekiston davlat konservatoriysi "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasida ustozlik faoliyatini davom ettirdi. Bu yerda ham yoshlarga ta'lif-tarbiya berish jarayonida faoliylik ko'rsatib, o'z tajribasini jamoa bilan hamkorlikda olib bordi. Tajribali ustoz bu yerda ham dolzarb masalalar "Cholg'u ijrochiligi muammolari" ga bag'ishlangan (2015-2019 yillar) Respublika, xalqaro anjumanlar o'tkazishda faoliylik ko'rsatdi, to'plamlar tayyorlashda mas'ul muharrir sifatida va maqolalar bilan ishtirok etdi. Maktabgacha ta'lif muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti taklifiga binoan "Maktabgacha va musiqiy ta'lif" kafedrasida 2020 yilda samarali ish faoliyati va tajribalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish borasida yosh o'qituvchilarga namuna bo'lib faoliyat yuritdi.

Ishga jiddiy munosabati, mehnatsevarliligi hamda o'ziga nisbatan talabchanligi bilan jamoada obro'-e'tibor qozongan ustozimizni yana O'zDK yangi tashkil etilgan "Musiqiy pedagogika" kafedrasiga taklif etildi. Hozirgi kungacha shu kafedrada samarali faoliyat yuritib, o'zining ko'p yillik tajribasi bilan o'rtoqlashmoqda. Ular rahbarligida bitiruvchi talabalar BMI ni muvaffaqiyatlil yoqlab o'zlarining ijrochilik va nazariy bilimlarini namoyish etishga erishmoqdalar. Shulardan biri men ham shu ustoz rahbarligida oliv dargohni tamomladim, olgan bilimlarimni yosh avlodga ta'lif-tarbiya, cholg'u ijrochiligin egallashlariga qaratib kelmoqdaman. O'quvchilarim orasida yutuqlarga erishganlari ham bor. Men ham ustozimizdan faxrlanib, ularga o'xshashini, olgan bilimimni ayamay yoshlarga ulashishni, zamon talabiga mos mutaxassislarni tayyorlashni maqsad qilganman. Ustozning kamtarligi, hozirjavobligi, tajribasi, bilimi bilan bizdek yoshlarga namuna bo'lishdek fazilatlari bizlarni yanada faol bo'lishga, mas'uliyat, zamon talabiga javob bera oladigan ustoz darajasiga yetish uchun tinmay mehnat qilish, izlanishni taqozo etadi. O'zbek musiqa san'ati va madaniyati rivojiga o'zining ilmiy - amaliy faoliyati bilan samarali hissa qo'shib kelayotgan Baxtiyor Azimov

joriy yil 80 yoshni qarshiladi, shu munosabat bilan “Nuroniy jamg’armasi” tomonidan “Mehnat faxriysi” I darajali ko’krak nishoni bilan taqdirlandi.



Ustoz hali ham navqiron yoshlardek mehnat qiladi, shunday ustozlarni ko’rib, ulardan o’rnak olib, zamon talabiga mos mutaxassislar tayyorlashga bor bilimimizni beramiz. Biz shogirdlar nomidan ustozga uzoq umr, sihat-salomatlik, omadlar, yangi yutuqlar, shogirdlar tayyorlash etishda charchamaslik, kuch-quvvat tilaymiz, shunday ustozlar qatorimizda doim bor bo’lsin deymiz. Har bir o’quv dargohida fidoyi, o’z kasbini sevuvchi, katta tajribaga ega bo’lgan ustozlar bor. Ulardan ibrat, namuna olib o’qishni tugatib, kelgusi faoliyatlarida ularning ijobjiy qirralarini davom ettirish, o’z sohalari bo’yicha muntazam izlanishlar olib borib tajribalarini orttirish, shogirdlariga yetkazish hozirgi zamonda ham dolzarb masala hisoblanadi. Kasbiga sodiq ustozlar bor ekan, shu soha mutaxassislarini tayyorlash ishlari zamon talabi darajasida bo’lishiga shubha yo’q. Biz ham ustozimizga taqlid qilib, ulardan namuna olib faoliyatimizda qo’llashga, yoshlар orasida joriy etishga harakat qilmoqdamiz.

